

Manzura

"Zamonavyi"

Visit "[Zamonavyi](#)" on [MotoLyrics.com](https://motolyrics.com)

Yeldek uchib, mashinangda yurasan,
Sen o'zingni bir dona deb bilasan. (2x)
Menga boqmay, nazaringga ilmasdan,
Duch kelganda ustimdan ham kulasan. (2x)

Zamonaviy-naviy bo'laman,
Burama ko'ylak kiyaman,
Qarab turgan otasin erkasin
Ko'p azoblarga solaman. (2x)

Sira ketmas poson qizlar yoningdan,
Urub qolgan ular sening joningdan. (2x)
Mendek qizning sen qadriga yetmasang,
Ayrilasan, erka o'g'il, boringdan. (2x)

Zamonaviy-naviy bo'laman,
Burama ko'ylak kiyaman,
Qarab turgan otasin erkasin
Ming azoblarga solaman. (2x)

Poshnalarim taqillatib o'taman,
Barmoqlarim shaqillatib o'taman. (2x)
Yuragingni yoqib, tilib o'taman,
Boshqa yorga yuragimni tutaman. (2x)

Zamonaviy-naviy bo'laman,
Burama ko'ylak kiyaman,
Qarab turgan otasin erkasin
Ko'p azoblarga solaman. (2x)

Visit [Manzura](#) page on [MotoLyrics.com](https://motolyrics.com), to get more lyrics and videos.